

BALOG'AT ILMIDA TASHBEH TURLARI VA XUSUSIYATLARI

ТИПЫ И ХАРАКТЕРИСТИКИ СХОДСТВА В ФИЛОСОФИИ

TYPES AND CHARACTERISTICS OF SIMILARITY IN PHILOSOPHY

Majidova Xamidaxon Mamatkul qizi

O'zDTU Sharq filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

hamidamajidova373@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili ilmlaridan balog'atning muhim bo'limlaridan biri — tashbeh mavzusi atroflicha yoritiladi. Unda tashbehning mazmuni, uning nutqni qanday go'zallashtirishi va ta'sirli qilishdagi o'rni izohlanadi. Shuningdek, tashbehning asosiy tarkibiy qismlari hamda turlari misollar asosida tahlil qilinib, uning qo'llanilish xususiyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: tashbeh, mushabbah, mushabbah bihi, mufrad, murakkab, mufassal, mujmal, muakkad, mursal, tamsiliy, zimniy, maqlub

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается одна из важных частей арабской риторики — таибих. Объясняются его содержание, роль в украшении речи и повышении её выразительности. Также анализируются основные составные части и виды таибиха на примерах, изучаются особенности его применения.

Ключевые слова: таибих, мушаббах, мушаббах биhi, муфрад, мураккаб, муфассал, мужмал, муаккад, мурсаль, тамсий, зимний, маклуб


Abstract: This article provides a detailed study of one of the important sections of Arabic rhetoric — tashbih (simile). Its meaning, role in beautifying speech, and enhancing its expressiveness are explained. The main components and types of tashbih are analyzed through examples, and its usage characteristics are examined.

Keywords: tashbih, mushabbah, mushabbah bihi, mufrad, murakkab, mufassal, mujmal, muakkad, mursal, tamsiliy, zimniy, maqlub

Tashbehning lug'aviy ma'nosi: o'xshatish (التمثيل)

Tashbeh balog'at istilohida: bir narsa yoki narsalar boshqa bir narsa yoki narsalar bilan bir yoki bir nechta sifatlarda sherik bo'lishini tashbeh vositalaridan bir vosita orqali ifodalashdir.

Tashbehning asosiy tarkibiy qismlari (ruklari): mushabbah (o'xshatilayotgan narsa), mushabbah bihi (unga o'xshatilayotgan narsa), adatut tashbeh (o'xshatish vositasi), vajhush shabah (o'xshashlik jihati). Buladan ikkisi: mushabbah, mushabbah bihi tashbehning ikki tomoni (طرفا التشبيه) deyiladi.



Masalan: العلم كالنور في الهداية - Ilm hidoyatda (to'g'ri yo'lga boshlashda) nur kabidir. Ushbu misolda العلم -mushabbah, النور – mushabbah bihi, ك - o'xshatish vositasi, o'xshash jihati bo'lyapti.

المشبه	المشبه به
ك	أداة التشبيه
النور	وجه الشبه
في الهداية	المشبه

Tashbehning ikki tarafini (mushabbah, mushabbah bihi) hissiy va aqliy bo'lishi:

Hissiy - 5 ta sezgi a'zolar bilan his qila olish.

Aqliy – faqatgina aql yordamida idrok qila

olish.

1. Hissiy narsani hissiyga o'xshatish: أنت كالشمس في الضياء
2. Aqliyni aqliyga o'xshatish: العلم كالحياة
3. Aqliyni hissiyga o'xshatish: العزم كالسيف
4. Hissiyini aqliyga o'xshatish: رائحة العطر كالخلق الحسن

Tashbehda mushabbah va mushabbah bihi doim ishtirok etadi. Lekin o'xshatish vositasi va sifat, ya'ni o'xshash jihati bor bo'lishi ham mumkin, yo'q bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, tashbeh 4 turga bo'linadi:

1. Agar vositachi (أداة التشبيه) keltirilgan bo'lsa **tashbeh mursal** deyiladi.
2. Agar vositachi (أداة التشبيه) keltirilmagan bo'lsa **tashbeh muakkad** deyiladi.
3. Agar o'xshashlik jihati (وجه الشبه) keltirilgan bo'lsa, **tashbeh mufassal** deyiladi.
4. Agar o'xshashlik jihati (وجه الشبه) keltirilmagan bo'lsa, **tashbeh mujmal** deyiladi.

التشبيه المرسل المفصل	العلم كالنور في الهداية
التشبيه المؤكد المفصل	العلم نور في الهداية
التشبيه المرسل المجمل	العلم كالنور
التشبيه المؤكد المجمل (التشبيه البليغ)	العلم نور

Tashbehda o'xshatish jihati (وجه الشبه) bir nechta narsadan olingan umumiy tasvirdan iborat bo'lsa, u **tashbeh tamsiliy** deyiladi.

وَكَأَنَّ الْهَلَالَ نُورٌ لَجَيْنٍ *** غَرَقَتْ فِي صَحِيفَةٍ زَرْقَاءِ

Ushbu baytda shoir moviy osmondagi yangi chiqqan go'zal ko'rinishdagi yaltirab turgan kamonsimon hilolni (oyini) moviy rangdagi qog'ozga kumush bilan yozilgan nun (ن) harfiga o'xshatyapti. O'xshatish jihati (وجه الشبه) mufrod emas murakkab bo'lyapti, ya'ni moviy rangli narsada kamonsimon oppoq narsaning borligi

Tashbeh zimniy:

Avvalo, zimniy so'ziga to'xtalib o'tsak: *ichidagi bor narsa* - ضِمْنٌ

Tashbeh zimniy bu – ma'kum bo'lgan ko'rinishlarda mushabbah, mushabbah bihi zohir bo'lmaydigan, balki tuzilishda yashirin holatda keladigan tashbehdir. Ya'ni: jumla bo'lsin, she'r bayti yoki nasr bo'lsin o'qiyotganda tashbeh yo'qdek ko'rinadi. Chunki mushabbah va mushabbahbihi ko'rinmaydi. Lekin diqqat bilan fikrlab ko'rilsa, yashirin holatda tashbeh kelayotgani bilinadi.

مَنْ يَهْنُ يَسْهَلُ الْهَوَانُ عَلَيْهِ *** مَا لِحَرْجِ بَمَيِّتٍ إِيْلَامُ

Bayt mazmuni: *haqoratlanishlarga odatlanib qolgan kishi, uni haqorat qilgan kishidan og'rinmaydi. Balki osongina qabul qilaveradi. Mutanabbiy baytning birinchi qismini shu mazmunda boshlab, ikkinchi qismida unga dalil keltiryapti. Chunki o'lgan inson (mayyit) jarohatlansa, og'rimaydi, og'riqni his qilmaydi.*

Bir qarashda tashbeh borgan o'xshamaydi. Lekin yaxshilab fikr yuritilsa, yashiringan tashbeh bor. Ya'ni, haqoratlanishlarga rozi bo'lib, odatlanib qolgan inson og'riqni his qilmaydigan mayyit kabidir.

المشبه	الإنسان الذي يرضى بالذل والإهانة
المشبه به	الميت الذي لا يشعر بالألم

Mushabbah bihidagi sifat odatda mushabbahning sifatidan darajasi balandroq bo'ladi. Lekin tashbehning keyingi turida xuddiki mushabbahda sifat ya'ni o'xshatish jihati (وجه الشبه) mushabbah bihidagi sifatdan afzal qilib ko'rsatiladi.

Tashbeh maqlub: mushabbahda o'xshatish jihati (وجه الشبه) mushabbah bihidan ko'ra kuchliroq ekanligini ko'rsatish va mubolag'a uchun mushabbahni mushabbah bihi qilishdir.

التشبيه البليغ (عادي)	الفتاة قمر
التشبيه المقلوب	القمر فتاة

والصُّبْحُ فِي

طُرَّةُ لَيْلٍ مُسْفِرٍ *** كَأَنَّهُ غُرَّةٌ مُهْرٍ أَشْفَرُ

Ma'lumki, shoirlar odatda toychoqning qashqasini (otning peshonasidagi) tong paytiga o'xshatishadi. Lekin Ibn Mu'taz mubolag'a uchun tong paytini toychoqning qashqasiga o'xshatyapti.

Tashbehning go'zallik siri: سر جمال التشبيه

1. Tashxis (inson suratida gavdalantirish): insondan tashqari barcha narsani insonga o'xshatish:

سر جماله التشخيص	العُمُرُ مِثْلُ الضَّيْفِ
------------------	---------------------------

2. Tajsim (gavdalantirish): ma'naviy narsani moddiy narsaga o'xshatish:

سر جماله التجسيم	الصَّحَّةُ تَأْجُ عَلَى رُؤُوسِ الْأَصْحَاءِ
------------------	--

3. Tavzih (yoritish, ravshanlashtirish): ma'naviy narsani ma'naviyga, moddiy narsani moddiyga o'xshatish:

سر جماله التوضيح	الْعَدْلُ حُلْمٌ يَسْعَى الْجَمِيعُ لِتَحْقِيقِهِ
سر جماله التوضيح	المُعْلَمُ مِصْبَاحٌ

Tashbeh tamsiliy va zimniyda go'zallik siri tavzih bo'ladi.

Tashbeh mavzusida olib borilgan tadqiqot davomida tashbeh, turlari, unsurlari, go'zallik sirlarini misollar yordamida o'rganib chiqildi. Balog'atning asosiy qoidasi: مطابقة الكلام لمقتضى الحال ya'ni gaplarning munosibligi holatning taqozosiga ko'ra bo'ladi. Shu bois, tashbehni ham o'z o'rnida ishlata olish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

١. علي الجارم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة في البيان والمعاني والبدیع مع الدليل. الرسالة النشرون - بيروت - ٢٠١٩
٢. العلامة المحقق سعد الدين التفنزي. مختصر المعاني في البلاغة. دار الكتب العلمية - بيروت - ٢٠١٦
٣. العلامة حفني ناصف، العلامة محمد دياب، العلامة مصطفى طوم، العلامة محمد صالح. دروس البلاغة. البشرى - كراتشي - باكستان ٢٠٢١
٤. أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. هنداوي سي أي سي - المملكة المتحدة - ٢٠١٧